



*2024- yil yanvar-may oylari uchun  
dastlabki ma'lumot*

# TOSHKENT VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo‘ladi.

2024- yil yanvar-may oylarida Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 2221,2 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 188,4 mln. AQSH dollariga yoki 7,8 %ga kamaydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-may 2024 y., mln. AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: 2 221,2 -7,8 %

(2023- y.: 2 409,6)



Saldo

2024- y.: -765,8 (2023- y.: -842,6)



### Eksport

2024- y.: 727,7 -7,1 %

(2023- y.: 783,5)

TSA dagi ulushi, % da




### Import

2024- y.: 1 493,5 -8,2 %

(2023- y.: 1 626,1)











**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

 TSAda eksport hajmi 727,7 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 7,1 %ga kamaydi) va import hajmi 1493,5 mln. AQSH dollariga (8,2 %ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida -765,8 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.













**TASHQI SAVDO AYLANMASIDA  
ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR**  
(2024- yil yanvar-may mln. AQSH dollari)

<p><b>XXR</b></p> <p>TSA – 573,4</p> <p>Eksport: 218,6 Import: 354,8</p> <p> 25,8%</p>	<p><b>Rossiya</b></p> <p>TSA – 635,7</p> <p>Eksport: 230,3 Import: 405,4</p> <p> 28,6%</p>	<p><b>Qozog‘iston</b></p> <p>TSA – 291,0</p> <p>Eksport: 44,1 Import: 246,9</p> <p> 13,1%</p>	<p><b>Turkiya</b></p> <p>TSA – 165,4</p> <p>Eksport: 87,2 Import: 78,2</p> <p> 7,4%</p>	<p><b>Italiya</b></p> <p>TSA – 50,3</p> <p>Eksport: 7,2 Import: 43,1</p> <p> 2,3%</p>
<p><b>Belarus</b></p> <p>TSA – 52,6</p> <p>Eksport: 7,4 Import: 45,2</p> <p> 2,4%</p>	<p><b>Germaniya</b></p> <p>TSA – 39,3</p> <p>Eksport: 2,2 Import: 37,1</p> <p> 1,8%</p>	<p><b>Tojikiston</b></p> <p>TSA – 32,5</p> <p>Eksport: 20,2 Import: 12,3</p> <p> 1,5%</p>	<p><b>Afg‘oniston</b></p> <p>TSA – 23,3</p> <p>Eksport: 23,1 Import: 0,2</p> <p> 1,1%</p>	<p><b>O‘irg‘iz Respublikasi</b></p> <p>TSA – 26,5</p> <p>Eksport: 12,0 Import: 14,5</p> <p> 1,2%</p>




## YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-may, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2023- y.	2024- y.
<b>Rossiya</b>	479,5	482,2
 Eksport	155,2	230,3
Import	324,3	405,5
<b>XXR</b>	530,7	573,4
 Eksport	161,6	218,6
Import	369,1	354,8
<b>Qozog'iston</b>	395,0	291,0
 Eksport	40,6	44,1
Import	354,4	246,9
<b>Turkiya</b>	224,1	165,4
 Eksport	156,9	87,2
Import	67,2	78,2
<b>Italiya</b>	45,5	50,4
 Eksport	10,6	7,2
Import	34,9	43,1
<b>Belorus</b>	56,0	52,6
 Eksport	9,4	7,4
Import	46,6	45,2
<b>Germaniya</b>	60,7	39,3
 Eksport	4,1	2,2
Import	56,7	37,1
<b>Braziliya</b>	124,0	50,6
 Eksport	0,0	0,0
Import	124,0	50,6
<b>Shveysariya</b>	3,9	27,3
 Eksport	0,7	0,9
Import	3,2	26,4
<b>Tojikiston</b>	41,6	32,5
 Eksport	17,8	20,2
Import	23,9	12,3




**HUDUDLAR KESIMIDA  
TASHQI SAVDO AYLANMASI**  
(2024- yil yanvar-may, mln. AQSH doll.)\*





## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 47,9 %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,5 %ga kamaydi.



Toshkent viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023- yilning mos davriga nisbatan 13,0 %ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 52,1 %ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-may oylarida 1 064,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 326,5 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 738,0 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



### MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-may, ulushi, %da)



Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (28,6%), Qozog'iston (13,1%) hamda Belarus (2,4%) davlatlari bilan qayd etildi.




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma‘lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 726 taga yetdi va ular tomonidan 727,7 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 7,1 %ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta‘minlandi.



### XSST\* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-may ulushi %da)



O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.





## TOSHKENT VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI *(yanvar-may, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, %da		Umumiy hajmga nisbatan, %da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami eksport</b>	<b>783,6</b>	<b>727,7</b>	<b>96,6</b>	<b>92,9</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	86,0	85,6	125,0	99,5	11,0	11,8
Ichimliklar va tamaki	3,4	5,7	2,5 m.	168,5	0,4	0,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	20,3	26,1	65,0	128,6	2,6	3,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	3,2	5,4	7,6 m.	13,5 m.	0,4	0,7
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,3	4,2	2,1 m.	0,0	0,0	0,6
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	31,4	39,6	111,6	126,1	4,0	5,4
Sanoat tovarlari	514,4	434,7	88,1	84,5	65,7	59,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	20,5	27,5	113,4	134,2	2,6	3,8
Turli xil tayyor buyumlar	102,0	97,3	135,9	95,4	13,0	13,4
Xizmatlar	2,1	1,6	43,2	80,5	0,3	0,2


Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,8 %ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (59,7%), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (11,8%) va turli xil tayyor buyumlar (13,4%) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-may oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,1 % ga ko'paygan.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-may, mln. AQSH  
dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 87,4 % ni tashkil etdi.




### TOSHKENT VILOYATI EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-may, %da)





## TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-may, mln.AQSH doll.)\*





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-may oyida 86,9 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 33,9 mln. AQSh dollariga teng 77,1 ming tonnadan ortiq sabzavot shuningdek, 12,2 mln. AQSh dollari qiymatidagi 7,1 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

2024- yil yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan 46,1 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-may, o‘zgarish sur‘atlari, qiymatga nisbatan)



Meva va  
rezavorlar  
7,1 ming tonna  
12,2 mln.  
AQSH dollari

Uzum  
1,6 ming tonna  
2,0 mln.  
AQSH dollari

Yeryon-g'oglar  
0,5 ming tonna  
0,8 mln. AQSH  
dollari

Sabzavotlar  
77,1 ming tonna  
33,9 mln. AQSH  
dollari



## TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI




2024- yilning yanvar-may oylarida import hajmi 1 493,5 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 91,8 %ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (25,6%), sanoat tovarlari (12,3%) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (9,0%) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-may, ulushi, %da)




Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-may oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 132,6 mln. AQSH dollariga kamaydi va 1 493,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 4,7 mln. AQSH dollariga yetdi.




## TOSHKENT VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-may, yillar kesimida)


XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, %da		Umumiy hajmga nisbatan. %da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami import</b>	<b>1 626,1</b>	<b>1 493,5</b>	<b>121,7</b>	<b>91,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	299,2	294,7	109,4	98,5	18,3	19,8
Ichimliklar va tamaki	2,5	1,8	163,8	72,0	0,4	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	289,1	197,5	116,2	68,3	17,7	13,3
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	122,6	209,4	2,6 m.	170,8	7,5	14,1
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	34,7	36,4	150,2	104,9	2,1	2,4
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	160,2	133,7	110,5	83,4	9,9	9,0
Sanoat tovarlari	228,6	184,1	84,4	80,5	14,1	12,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	452,8	381,9	167,1	84,3	27,8	25,4
Turli xil tayyor buyumlar	33,8	25,8	67,6	76,5	2,1	1,7
Boshqa tovarlar	0,6	23,5	33,2	37,0 m.	0,0	1,6
Xizmatlar	2,0	4,7	54,1	2,3 m.	0,1	0,3

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

 2024- yil yanvar-may natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 49,4 %ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,7 %ga ko'paydi.

### MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSH dollari, ulushi)



 2024- yil yanvar-may oylarida yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya, Qozog'iston, Italiya, Turkiya, Germaniya va Belarus) jami importning 81,0 %ni tashkil etdi.




### TOSHKENT VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-may, %da)





## TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-may, mln. AQSH doll.)



2023- y.

2024- y.